

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2024-yil  
“27 dekabr” dagi  
485 - sonli buyrug'i bilan  
tasdiqlangan.

**“O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi”**

yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA**  
**MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**  
**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA**  
**ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
Muvoofiqlashtiruvchi kengashining*

*2024-yil 24.12. dagi 12-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.*

|                         |  |
|-------------------------|--|
| <b>Tuzuvchilar:</b>     | <p>“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, yu.f.b., PhD F.B.Maxmudov.<br/>“Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish” moduli: yu.f.n., prof. V.Topildiyev, yu.f.d., prof. B.I.Ismailov.<br/>“Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, p.f.b., PhD Sh.Adashboyev, o'qituvchi A.Doliyev.<br/>“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov p.f.b., PhD N.Xaqnazarov.<br/>“Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.b., PhD I.Eshmamatov, R.Dj.Ishmuxamedov, A.Turayev, A.Abduraxmonov.<br/>“Ta'lif sifatini ta'minlashda baholash metodikalari” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.d., prof. J.Tolipova, p.f.b., PhD M.Innazarov.<br/>“O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari” moduli: f.f.d.prof. A.Erkinov.<br/>“Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi” moduli: f.f.d.prof. B.Karimov.<br/>“Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishiga innovatsion yondashuv” moduli: f.f.d.prof. D.Yusupova.</p> |
| <b>Taqrizchilar:</b>    | <p>S. Meliyev – O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, filologiya fanlari doktori.<br/>J. Eshonqulov. Alisher Navoiy nomidagi davlat muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor.</p>  |
| <b>Xorijiy ekspert:</b> | <p>A. Oldfield – Kastol Karolina universiteti (Amerika) Jahon adabiyoti kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.</p>   |

*O'quv dasturi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2024-yil "28" noyabrndagi - 4 sonli bayonnomasi).*

## Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir bиринчи navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldaggi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning

normativ-huquqiy asoslari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari, adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi, oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishiga innovatsion yondashuv bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

2.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.

2.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

2.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.

2.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.

2.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

2.6. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari.

2.7. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari.

2.8. Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi.

2.9. Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishiga innovatsion yondashuv.

## **Malakaviy attestatsiya**

### **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

**"O'zbek tili filologiyasi:o'zbek adabiyotshunosligi"** yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

**“O‘zbek tili filologiyasi:o‘zbek adabiyotshunosligi”** yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” qonunlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga

qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;

- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- meta texnologiyalar tushunchasi, afzalliklari va kamchiliklarini;
- zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
- ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
- bilimlarni sinash va baholashning aqlii tizimlarini;
- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
  - zamonaviy ta’limning global trendlarini;
  - inson kapitalining iqtisodiy o’sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagи ahamiyatini;
  - oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
  - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
  - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
  - universitetlarning zamonaviy modellarini;
  - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
  - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
  - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
    - innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
      - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
      - kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
      - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
      - pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
      - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
      - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- o‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik masalalarini;
- XX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiyotshunosligida davrlashtirish tamoyillariga oid qarashlarni;
  - o‘zbek adabiyotini xronologik bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni;
  - metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o‘rnini;
  - adabiyotshunoslik ilmida metodlar klassifikatsiyasini;
  - badiiy asar shakliga qaratilgan metodlarni;
  - sharq mumtoz adabiyotida she’r tuzilishi, mumtoz she’r nav’larini;
  - g‘arb va sharq adabiyotida she’r tuzilishiga doir qarashlarni;
  - mumtoz qofiyani aniqlash usullarini;
  - oliy ta’limda aruz tizimini o‘qitish muammolarini ***bilishi*** kerak.

### Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydonagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofaviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;

- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha zanjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- adabiyotda davrning ijtimoiy manzarasi aks etishini yoritib berish;
- davrlashtirishdagi asosiy tamoyillar: adabiy tarixiy va siyosiy jarayonlarni tushuntira olish;
- chig‘atoj tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalarini tahlil qilish;
- Temuriylar davri chig‘atoj adabiyotining asosiy xususiyatlarini ochib bera olish;
- adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismlarini ajrata olish;
- adabiyot nazariyasi va undagi terminologiya muammolarini yoritib bera olish;
- badiiy asarning formal qirralarini o‘rganadigan metodlarni farqlay olish;
- struktural-analiz metodining asoslari va namoyandalarini bilish;
- she’r tuzilishi, she’r tuzilishining taraqqiyot bosqichlarini ajrata olish;

- aruzning nazariy asoslari haqida umumiylarini bilish;
- aruzning kvantitativ va kvalitativlik xususiyatlarini farqlay olish;
- mumtoz she'rning qaysi janrga mansubligi aniqlay olish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishslash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o'zlashtirish;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- me'yoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an'anaviy va raqamli ta'limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta'limga samarali integratsiya qilish yo'llaridan foydalanish;
- ta'limdagagi sun'iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;

- OTM bitiruvchilarini va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini olib berish;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- ijtimoiy fikr tarixi har bir davr adabiyotining muhim belgilaridan biri ekanligini anglash;
- diniy oqimlar va islomgacha bo‘lgan qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillarini bilish;
- islomgacha bo‘lgan davrdagi diniy oqimlar haqida ma’lumotlarni tahlil qila olish;
- Temuriylar davri chig‘atoj adabiyotining asosiy xususiyatlarini farqlay olish;
- G‘aznaviyalar davri adabiyotining shakllanish manbalarini bilish;
- adabiy tanqid va adabiy jarayon hodisalarini talqin qilish;
- jahon adabiyotshunosligida badiiy asarga yondashuvning modernistik usullarini bilish;
- formal metodning o‘ziga xos tarixi, adabiy-nazariy tamoyillari, asoschi-vakillari, davomchi-namoyandalarini bilish;
- formaliz va vulgar sotsiologizmni qiyoslay olish;

- sinkretizm davri (musiqa, raqs va she'r uyg'unligi) alohida san'at turi sifatidagi mustaqil ajralish davrini yoritish;
- aruzda prosodik urg'u masalasini yoritish;
- aruz ilmini oliv ta'limda o'qitish bilan bog'liq muammolarni yechalish;
- mumtoz qofiyani o'qitish masalalarini tahlil qilish;
- rukn va uning turlarini ajrata olish, raviyni aniqlash;
- mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalarni aniqlash **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyatga tadbiq etish;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
  - oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasidan foydalanish;
  - raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
  - raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
  - raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyatga tatbiq etish;
  - meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'limdagi ta'sirini ochib berish;
  - sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
  - universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
  - OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyatga tadbiq etish;
  - «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;

- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyatga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan bиргаликда aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- adabiyotni davrlashtirishda o‘ziga xos omillar, vositalar, ijtimoiy-tarixiy jarayon, falsafiy-diniy oqimlar, turli adabiy kategoriyalarni asoslab berish;
- diniy oqimlar yozma adabiyotni yuzaga keltiruvchi omil ekanligini baholay olish;
- budda, moniy obrazlarinnng buddaviylik va moniylik oqimdagи turkiy adabiyotda transformatsiyasida tutgan o‘rnini tahlil qilish;
- oltoy nazariysi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davrini xronologik tahlil qilish va baholash;
- moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatidagi o‘rnini belgilash;
- adabiyotshunoslik metodologiyasi metodlar jami sifatidagi o‘rnini aniqlash;
- metodologyaning yo‘naltiruvchanlik tabiatи va uning adabiy siyosat bilan bog‘liq qirralarini ochish;
- adabiyotshunoslik metodlari orasida badiiy asarning shaklini o‘rganishga qaratilga maxsus metodlarni ajratish va tahlil qilish;
- struktural-analiz metodining imkoniyatlarini baholash;
- she’r tuzilishining zamonaviy rivojlanish tamoyillarini tahlil etish;
- mumtoz qofiya asoslari, uning tarkibiy qismlari ajratish;
- ilmi qofiya va uning vujudga kelish omillarini aniqlash;
- ilmi aruz va ilmi qofiya munosabatini qiyosiy tahlil qilish;
- bahrlar tasnifi, aruz tizimida rukn tushunchasi yoritib berish;
- qofiyaning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlash va ularni nomlash tamoyillari

asoslab berish kabi *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

### **Kurs hajmi**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o‘quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish shakllari asosida, 144 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan kurs tinglovchilariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

## **“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI ” YO‘NALISHI BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI**

### **2.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.**

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rni, O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

Xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil etiladi.

## **2.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.**

Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjatlardan tushunchasi. Normativ-huquqiy xujjatlarning turlari. Normativ huquqiy xujjatlarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTM larning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta'lim yo'nalishlari va magistratura

mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish.

Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish vazifalari va huquqiy omillari. Oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari. Oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarining ko‘rinishi, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minalash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasi.

Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirishning chora-tadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

### **2.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.**

Ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasi. Pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi. Raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillari. Raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablar. Raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizayn. Mediasavodxonlik va xavfsizlik. An’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlari. Raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi. ADDIE pedagogik dizayn tushunchasi. UX-dizayn. Internetdagi turli manbalar bilan ishlashda maxsus norma va qoidalarga rioya qilish: mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, axborot xavfsizligi. Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullari.

Raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlari. Raqamli ta’lim resurslaridan (RTR) foydalanish. RTRni tanlash, elektron kutubxonalar bilan ishlash, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ochiq o‘quv platformalarida ommaviy onlayn kurslarni tanlash.

